https://gospodarkainnowacje.pl

GOSPODARKA I INNOWACJE

LABORATORIUM WIEDZY Artur Borcuch

Volume: 60 | 2025

Economy and Innovation
ISSN: 2545-0573

For more information contact: editor@gospodarkainnowacje.pl

AVLODLARARO MUNOSABATALARNI MUVOFIQLASHTIRISHDA OILADAGI IJTIMOIY MUHITNING TUTGAN O'RNI

Mirzaxanova Dilfuza Nig'matulla qizi
O'zXIA stajyor doktoranti

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: oila, "oila tarbiyasi", "oila dunyosi", "Tadbirul manzil', Fitrat, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Otaxo'jayev, Safarov, Mahmudov, Musurmanova, Xalmatova, nuklear, mezalyans.

Annotatsiya

Oila azal-azaldan Sharq xalqlari hayotida eng asosiy qadriyat sifatida jamiyatga ma'nan yetuk va jismonan barkamol insonni yetkazib beruvchi manba vazifasini o'tab kelgan. Shu bilan bir qatorda, islom dinida oilaviy munosabatlar, nikohning manfaatlari, er va xotinning burch va vazifalari, oilada farzand tarbiyasi kabi masalalarga nihoyatda katta ahamiyat qaratilgan. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, oilaviy munosabatlarni tartib-intizomga asoslangan holda olib borish jamiyat taraqqiyotiga, unda barkamol insonlar salmog'ining oshishiga xizmat qiladi.

http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2025 LWAB.

Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi. O'z navbatida, oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ma'naviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boraveradi»[1]. Binobarin, «Oila dunyosi» bir qator ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, axloqiy rishtalar bilan uzviy bog'langan yaxlit «dunyo» bo'lib, bunda butun boshli tarix, millat, davlat o'z ifodasini topgan bo'ladi[2].

Agar biz shartli ravishda «oila tarbiyasi» va «oila dunyosi» («oila olami») atamalarini o'zaro qiyoslasak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

- oila tarbiyasi tushunchasida oilada bola ongi va tuyg'ular olamiga ta'sir etuvchi tarbiyaviy omillar ko'proq nazarda tutiladi. Irsiyat orqali o'tgan belgi xususiyatlardan tashqari, bola xarakterida oilaviy jarayonda yuz bergan barcha xatti-harakat va holat, munosabatlar o'chmas iz qoldiradi. Keyinchalik xarakterning yetakchi yoki bosh xususiyatiga aylangan fazilat yoki odatlar oilaviy munosabatlardan oziqlanadi. Shu ma'noda, oila tarbiyasi har jihatdan ijobiy, maqtovga sazovor bo'la olmaganidek, har jihatdan salbiy yoki noodatiy bo'lishi ham tabiiydir. Har holda, oila tarbiyasida yetakchi ijobiy xususiyatlar ustuvor bo'lsa, ayrim juz'iy kamchiliklarni, nuqsonlarni bilintirmay turadi. «Har to'kisda bir ayb», deydi dono xalqimiz va ushbu maqol bilan hamma narsa hamisha birday yaxshi bo'lmasligi uqtiriladi;

[1] Vatan tuyg'usi. – Toshkent: O'zbekiston, 1996, 82-b.
[2] Oila, ma'naviyat va ijtimoiy hayot. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: 1998, 3-b.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

- «Oila dunyosi» esa, «oila tarbiyasi»ga nisbatan birmuncha badiiy ifoda bo‘lib, unda oilaviy munosabatlar dialektikasi, o‘zaro kundalik muloqotlar murakkabligi ko’zga tashlanadi. «Oila dunyosi» nisbatan ramziy-majoziy tushuncha bo‘lib, uning ilmiy ta’rifini berish oson emas. Muxtasar qilib aytilsa, bu so‘zlar vositasida oilaning o‘ziga xos ma’naviy muhit, o‘z qonuniyatlariga ega bo‘lgan betakror tarbiya o‘chog‘i ekanligi ta’kidlanadi.

Oila azal-azaldan Sharq xalqlari hayotida eng asosiy qadriyat sifatida jamiyatga ma’nan yetuk va jismonan barkamol insonni yetkazib beruvchi manba vazifasini o‘tab kelgan. Shu bilan bir qatorda, islom dinida oilaviy munosabatlar, nikohning manfaatlari, er va xotinning burch va vazifalari, oilada farzand tarbiyasi kabi masalalarga nihoyatda katta ahamiyat qaratilgan. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, oilaviy munosabatlarni tartib-intizomga asoslangan holda olib borish jamiyat taraqqiyotiga, unda barkamol insonlar salmog‘ining oshishiga xizmat qiladi. Bu borada islom mutafakkirlari tomonidan ko‘p sonli durdona asarlar yozilgan bo‘lib, mana shunday olimlardan bir Abu Ali ibn Sinodir.

Ibn Sino o‘zining “Tadbir ul-manzil” nomli kichik, ammo nihoyatda foydali ma’lumotlarga to‘la bo‘lgan risolasida mazkur masala borasida takrorlanmas ma’lumot va nasihatlarni keltiradi. Mazkur asarda oila, uning inson va jamiyat hayotidagi bebaho ahamiyati, oila boshlig‘ining vazifalari, uy-joyni idora etish shartlari, farzand tarbiyasida amal qilinishi lozim bo‘lgan jihatlar, oila rahbarining o‘ziga juft tanlashda e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan masalalar muhokama qilingan. Oila boshqaruvida mana shunday tadbirlar amalga oshirilganda, oila mustahkamligi ta’minlanadi. Bunday oilada yetuk va sog‘lom farzandlar dunyoga keladi. Farzandning oila mustahkamligidagi beqiyos ahamiyatini to‘g‘ri anglagan holda, Ibn Sino ota-onaning farzand ta’limida, tarbiyasida e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlarga to‘xtaladi. Alloma ota-onaning farzand oldidagi birinchi vazifasi sifatida unga chiroyli ism qo‘yish mas’uliyatini ta’kidlab ko‘rsatadi. Albatta farzandga ism tanlash masalasida nihoyatda e’tiborli bo‘lmoq lozim. Zero, chiroyli ism farzand ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uning kelajakda yuksak axloqiy xislatlarni kasb etishiga sababchi bo‘ladi. Ota-ona farzand tarbiyasida uning diniy va dunyoviy bilimlarni egallashiga alohida e’tibor qaratishi, oila qurish yoshiga yetgach, uni uylantirib qo‘yishi ham oilaning go‘zal ko‘rinishda davom etishiga sabab bo‘ladi[3].

XX asr boshlaridagi ma’rifatparvarlik harakatining asoschilaridan biri Fitratning “Oila” asarida oila asosini to‘g‘ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg‘unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir… Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi.” deb yozadi.

Oiladagi o‘zaro munosabatlar madaniyati malakasi tasavvuf falsafasida ham alohida o‘rin tutadi. Bu falsafaning yirik vakillari bo‘lgan Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ota va onalar o‘zaro munosabatlarining farzandlar kamolotidagi roli, farzandlarning ota-onalarga bo‘lgan munosabati mavzui alohida ta’kidlab o‘tilganligini ko‘ramiz.

Shuningdek, ulug‘ ulamolar bo‘lmish Imom al-Buxoriy, imom at-Termiziylarning hadis to‘plamlarida ham mazkur mavzuga katta e’tibor berilgan. Qur’ondan keyingi diniy manba – hadislarda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) aytdilar: “Alloh taoloning rozi bo‘lishi ota-onaning rozi bo‘lishiga va Allohning g‘azabi ham ota-onaning g‘azabiga bog‘liqdir” (Imom Buxoriy rivoyati).

Haqiqatdan ham ota-onaga ozor bermaslik, ularning dilini vayron qilmaslik, muloyimlik bilan suhbatda bo‘lish, ko‘nglini ko‘tarish aytganlarini vaqtida bajarish, farzandning ota-ona oldidagi burchidir.

O‘rta asr mutafakkirlaridan Abu Bakr ar-Roziyning (865-925) komil inson tarbiyasida qadriyatlarning o‘rni haqidagi qarashlari o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ar-Roziy[4] o‘z asarlarida insonlarda yaxshi xulqni

[3] Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoniy tarjimasi. -Tehron: Eron milliy kutubxonasi, 1902. -28 b.
[4] Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. T.: O’zbekiston, 2016 – 424 b.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

shakllantirish va badxulqlikni yo‘qotish yo‘llari hamda usullari haqida yozadi, aql bilan ish ko‘rishga, hissiyotlarni jilovlay olishga, me’yorida lazzatlanishga, lahzalik lazzatga umrini baxshida qilmaslikka chaqiradi. U inson axloqan pok bo‘lishida ijtimoiy omillarga ko‘p e’tibor beradi hamda odamni ijtimoiy faollikka, jamiyatga foyda keltirib yashashga chorlaydi. Kuzatganimizdek, bugungi tarbiya sharoitida ham ar-Roziyning milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash haqidagi fikrlari ko‘plab oqilona xulosalar chiqarishga imkon beradi.

A.R.Beruniy "Abadiy qadriyatlar” asarida turli xalqlar va dinlarning xususiyatlari, bu xalqlaring ma’lum davrlarga to‘g‘ri kelgan mashhur bayramlari, xotira kunlari hamda bir xalqni ikkinchisidan farqli qadriyatlari, urf-odatlari, turli xalqlar qo‘llayotgan yil hisoblash usullari, oy va yillarning farqi kabi masalalarni bayon qilib bergan. Turli xalqlarga xos qadriyatlarni o‘rganish uchun Beruniy o‘ziga xos ilmiy maktab yaratadi. Shuningdek, A.R.Beruniy[5] o‘zining mashhur "Hindiston" asarida turli xalqlarning qadriyati va tafakkur qilish xususiyatlari, diniy va dunyoviy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlari, xudoga ishonishlari, do‘zax va jannat haqidagi fikrlari bayon qilingan.

Yetuk o‘zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari[6]da bola tarbiyasi va umuman, uning ijtimoiy roli falsafiy-pedagogik jihatdan keng ochib beriladi. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning rolini, ularning hamkorligini, ota-ona va jamiyat tomonidan singdiriladigan qadriyatlarni alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, barkam□ l shaxsning har tomonlama bilimlarga ega bo‘lishi, yaxshi tarbiya egasi bo‘lishi, bir tomondan ijtimoiy muhit va □ ilaviy sharoitdagi muhim qadriyatlarga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan bolaning g‘ayrat va shijoatiga, sa’y-harakatlariga, x□ hishintilishlariga bog‘liq bo‘ladi. A.Avloniy asarlaridagi odob-axloq va yoshlar tarbiyasiga bag‘ishlangan chuqur falsafiy g‘oyalar, bolalarni axloqiy tarbiyalashga yo‘naltirilgan qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda insoniyat va jamiyatga nisbatan turli xil qabihliklarni amalga oshirmaslikka undashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oila turlarining demografik, ijtimoiy tuzilishlariga qarab bo‘linishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda uning oilaviy munosabatlar madaniyatiga ta’siri mavjud. Mamlakatimizda mavjud oilalarning aksariyati to‘liq oilalardir. To‘liq oila deganda ota-ona va farzandlardan iborat oila tushuniladi. Bu tipik oilaga xos xususiyatdir. Bunday oilalar, o‘z navbatida, patriarxal, nuklear, mezalyanslarga bo‘linadi. O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyati yana shundaki, hozirda o‘zbek oilalardagi katta patriarxal oila xo‘jaligi ham saqlanib qolingan. Bunda 2-3 avlod xo‘jaligi umumiy bo‘lib, ularning iqtisodiy birligining asosi hisoblangan oila mulki faqat oila boshlig‘i qo‘lida bo‘ladi va hamma unga bo‘ysinadi. Mana shu sababli ham qarindosh – urug‘larning quda-andachilik munosabatlari davom qilib kelayapti. Yaqin qarindoshlarning nikohi ham shu jumladandir.

Sharq va g‘arb oilalari xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilganimizda Yevropa oilalariga xos xususiyat – nikohsiz erkin yashashning keng tarqalishi, ajralishlarning ko‘payishi, tug‘ilishning kamayishi bilan izohlanadi. Ayrim G‘arb olimlari nikohni butunlay yo‘qotib, nikoh kishi erkinligini cheklab qo‘yadi, u inson tabiatiga zid narsadir deb hisoblaydilar. Albatta, bu noto‘g‘ri bo‘lib, insoniyat taraqqiyotiga ziddir.

Zamonaviy oilalarga xos ikkinchi xususiyat ularning nuklearligidir (Nuklear – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “yadro” demakdir. Er-xotin va bolalardan iborat). Hozirda G‘arb sivilizatsiyasi ta’sirida oilaning bu xili ko‘payib bormoqda. Bunday oilalarda qaynona va kelin yoki kelinlar alohida yashaganliklari uchun ular orasidagi nizoli munosabatlarning oldi olinadi, turmush tarzida ular bir-birlari bilan qadrliroq, mehr-shafqatliroq madaniy munosabatda bo‘lishadi. Bu masalaning ijobiy tomoni bo‘lib, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishiga olib keladi. Ota-onadan alohida yashayotgan kelin-kuyov musataqil hayotga, oila iqtisodiyotini rejalashtirishga, farzandlarni mustaqil tarbiyalashga o‘rganadilar. Oilaviy masalalarni dam olish, bo‘sh

[5] Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. -T.: Me’ros, 1998. -132 b.
[6] Авлоний А. Туркий гулистон ёки ахлоқ. –Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. - 97 б.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

vaqtdan samarali foydalanish kabilarda nuklear oilalar erkinlikka ega bo‘ladilar.

Zamonaviy oilalarga xos uchinchi xususiyat – mezalyanslarning oshishidir. (“Mezalyans” – fransuzcha so‘z bo‘lib er-xotinning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy mavqelari orasida katta tafovut bo‘lgan oilalar tushuniladi). “Mezalyans” deb, masalan shaharliklar bilan qishloqliklar, ziyolilar bilan ishchi-dehqon, chorvadorlar hamda turli millat kishilari orasidagi nikohlarni tushunish mumkin. Mezalyans oilalar sonining oshishi ham irsiy ijtimoiy jihatdan ijobiy holdir.

Sharq tarbiyasida biz ota-onalar oila baxtliligini ta’minlashda va yoshlarni oilaga tayyorlashda jinsiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Mashhur faylasuf Z. Freydning ta’lim berishicha, oila faqatgina birgalikda yashash uchun emas, balki to‘laqonli hayot kechirish, insoniy ehtiyojni qondirish uchun ham quriladi.

Oilada har tomonlama sog‘lom muhitni qaror toptirishda quyidagi ijtimoiy pedagogik-psixologik, ma’naviy-madaniy mezonlarga amal qilishni tavsiya sifatida maqsadga muvofiq deb yondashishimiz mumkin:

- yoshlarni sportga, jumladan, oilaviy sportga ijobiy munosabatini shakllantirishga erishish;
- farzandlarda hayotiy faoliyatni oqilona tashkil etish va reproduktiv madaniyatni shakllantirishga erishish;
- Oilada sog‘lom turmush tarzini asosiy omil sifatida xalqimizning o‘ziga xos an’analari va qadriyatlarini o‘rganish va keng targ‘ib etish;
- Ota-onalarning farzand tarbiyasi yuzasidan mas’uliyatini, salohiyatini, savodxonligini, ota-onaning pedagogik-psixologik layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta’minlash;
- Oilada ma’naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish;
- Oilaviy munosabatlarda farzandlarning umumadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish.

Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og‘ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo‘yilganida esa bolaga atrof-muhit va jamoatchilikning ta’siri sezilarli bo‘ladi. Ta’lim muassasalari va mahalla-kuy, umuman, ijtimoiy sfera muhiti inson farzandini to hayotining so‘ngi daqiqasigacha ta’qib qilib boradi. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma’naviy takomilida ham muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoniy tarjimasi. -Tehron: Eron milliy kutubxonasi, 1902. -28 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. -T.: Me’ros, 1998. -132 b.
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: “Ma’naviyat”, 1998. – 8 b.
4. Авлоний А. Туркий гулистон ёки ахлоқ. –Т. Ёшлар нашриёт уйи, 2018. - 97 б.
5. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. T.: O’zbekiston, 2016 – 424 b.
6. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari (mustaqil hayot bo‘sag‘asidagi yoshlar): Pedagogika fanlari doktori... dis./ Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. – Toshkent, 1998. 279-bet.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

7. Shodmonova Sh.S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped.fanlari nomzodi. Dis./Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti. – Toshkent, 2001. 14-bet
8. Сороколетова О.В. Любовь - как главная ценность семьи // Евразийский форум. 2015. №1 (7).
9. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: «Полит. лит-ра», 1992. – С. 297-302.
10. Held, K.Heimwelt, Fremdwelt, die eine Welt // PhänomenologischeForschungen / Hrsg. E.W.Orth. – Freiburg / München 1991. – Bd. 24/25
(Perspektiven und Probleme der HusserlschenPhänomenologie). – S. 316.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0